NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTINING SIVILIZATSION-FALSAFIY ASOSLARI VA ISTIQBOLLI RIVOJLANISH YO‘NALISHLARI

Hakimov Akmaljon Mirzag‘aniyevich
Qo‘qon davlat universiteti
«Falsafa va dinshunoslik» kafedrasi katta o‘qituvchisi PhD
ORCID: 0009-0009-6622-1168
Science ID: FFR-1026-0005

Annotatsiya: *Annotatsiya Mazkur maqolada Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining sivilizatsion-falsafiy asoslari, jamiyatning zamonaviy qiyofasi va istiqbolli rivojlanish yo‘nalishlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Maqolada inson kapitalini rivojlantirish, fuqarolik jamiyatini mustahkamlash, gender tengligi, ma’naviy tiklanish, ekologik barqarorlik va innovatsion iqtisodiyot kabi ustuvor yo‘nalishlar masalalari ko‘rib chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *Yangi O‘zbekiston, sivilizatsion yondashuv, inson kapitali, fuqarolik jamiyati, demokratiya, ma’naviy tiklanish, ekologik barqarorlik, innovatsion rivojlanish, Taraqqiyot strategiyasi.*

ЦИВИЛИЗОВАННЫЕ И ФИЛОСОФСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА И ПЕРСПЕКТИВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ

Аннотация: *Аннотация В данной статье научно-теоретически анализируются цивилизационно-философские основы развития Нового Узбекистана, современный облик общества и перспективные направления развития. В статье рассматриваются такие приоритетные направления, как развитие человеческого капитала, укрепление гражданского общества, гендерное равенство, духовное возрождение, экологическая устойчивость и инновационная экономика.*

Ключевые слова: *Новый Узбекистан, цивилизационный подход, человеческий капитал, гражданское общество, демократия, духовное возрождение, экологическая стабильность, инновационное развитие, Стратегия развития.*

CIVILIZATIONAL AND PHILOSOPHICAL FOUNDATIONS OF THE DEVELOPMENT OF THE NEW UZBEKISTAN AND PROMISING DIRECTIONS FOR DEVELOPMENT

Abstract: *Abstract This article provides a scientific-theoretical analysis of the civilizational-philosophical foundations of New Uzbekistan’s development, the modern image of society, and promising development directions. The article examines priority areas such as human capital development, strengthening civil society, gender equality, spiritual revival, environmental sustainability, and an innovative economy.*

Keywords: *New Uzbekistan, civilizational approach, human capital, civil society, democracy, spiritual revival, environmental stability, innovative development, Development Strategy.*

Kirish

Zamonaviy jamiyatda globallashuv jarayonlari ta’sirida yuz berayotgan tezkor va chuqur evolyutsion o‘zgarishlar kelajak taraqqiyotining mumkin bo‘lgan yo‘nalishlarini nazariy jihatdan tahlil qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Global muammolarning keskinlashuvi oqibatida yuzaga kelishi ehtimol bo‘lgan umumsivilizatsiyaviy inqiroz xavfi esa globallashuvning mazmuni va oqibatlarini ilmiy asosda o‘rganishga qaratilgan konsepsiyalarni yanada takomillashtirishga undamoqda. XXI asrning ikkinchi o‘n yilligida dunyoda sodir bo‘layotgan global geosiyosiy o‘zgarishlar, raqamlashtirish jarayonlari, insoniy kapitalga asoslangan yangi iktisodiy tizimlarning yuzaga kelishi, postindustrial jamiyatga o‘tish jarayonlari O‘zbekiston jamiyati oldida ham yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Ana shunday sharoitda mamlakatimizda 2016 yildan boshlangan yangi siyosiy iroda va islohotlar tufayli «Yangi O‘zbekiston» tushunchasi shakllanib, u nafaqat siyosiy konsepsiya, balki ijtimoiy-mafkuraviy harakat sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, «Yangi O‘zbekistonni barpo etish – yaqin va olis tariximiz, betakror va noyob madaniy boyliklarimizni yanada chuqur o‘rganib, ularga tayanib, mustaqil milliy taraqqiyot yo‘limizni yangi bosqichda davom ettirish demakdir» [1]. Shu asosda jamiyatda demokratlashuv, inson huquqlarini ta’minlash, ochiqlik va faol fuqarolik pozisiyasi ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Fuqarolik jamiyatini shakllantirish, axborot makonida

erkinlikni ta’minlash, siyosiy va ijtimoiy masalalarda ommaviy ishtirokni rag‘batlantirish Yangi O‘zbekiston jamiyatining zamonaviy mezonlaridir.

Jamiyatning shakllanishi va istiqboldagi taraqqiyoti masalalari bugungi kunda faqatgina siyosatshunoslar yoki iqtisodchilar emas, balki falsafa, sotsiologiya, madaniyatshunoslik, huquq va ta’lim sohasi olimlari uchun ham dolzarb ilmiy tadqiqot yo‘nalishiga aylangan. Chunki har qanday taraqqiyot inson omili, uning tafakkuri va ijtimoiy faolligi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Tadqiqot maqsadi: «Yangi O‘zbekiston» taraqqiyot konsepsiyasining sivilizatsion-falsafiy asoslarini, uning jadidchilik merosi va zamonaviy islohotlar bilan uzviyligini hamda istiqbolli rivojlanish yo‘nalishlarini ilmiy tahlil qilish.

ADABIYOTLAR TAHLILI

«Yangi O‘zbekiston» taraqqiyotining sivilizatsion-falsafiy asoslari masalasi so‘nggi yillarda falsafa, siyosatshunoslik, sotsiologiya va iqtisod fanlari kesimida faol o‘rganilmoqda.

Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomalari, «Yangi O‘zbekiston» gazetasiga bergan intervyulari, xalqaro forumlardagi nutqlari konsepsiyaning rasmiy mafkuraviy asosini belgilaydi. «Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida»gi Qonun, «Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida»gi qonun, «O‘zbekiston – 2030» strategiyasi fuqarolik jamiyati institutlarining huquqiy asoslarini belgilaydi. Kadirhanova M.ning tadqiqotida gender tengligi masalasi oilaviy-huquqiy munosabatlar kontekstida ko‘rib chiqilgan. Tulyakovning tahlillarida esa «O‘zbekiston – 2030» strategiyasining iqtisodiy ko‘rsatkichlari tizimli yoritilgan. Tahlilar shuni ko‘rsatadiki, mavjud adabiyotlarda: jadidchilik merosi va «Yangi O‘zbekiston» o‘rtasidagi falsafiy uzviylik ko‘proq publitsistik janrda yoritilgan, fundamental falsafiy tadqiqotlar yetarli emas; «milliy shakl va zamonaviy mazmun» dialektikasi asosan makro-darajada tahlil qilingan; raqamli transformatsiyaning sivilizatsion oqibatlari yetarli falsafiy tahlil qilinmagan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot ob’ekti – «Yangi O‘zbekiston» taraqqiyot konsepsiyasi. Tadqiqot predmeti – uning sivilizatsion-falsafiy asoslari va istiqbolli rivojlanish yo‘nalishlari. Tadqiqotda tarixiylik, qiyosiy-tahliliy, tizimli va dialektikkontent-tahlil, statistik ma’lumotlarni umumlashtirish yondashuvlardan foydalanildi. Tarixiy-falsafiy metod – jadidchilik merosi va zamonaviy islohotlar o‘rtasidagi uzviylikni aniqlash uchun imkon beradi.Qiyosiy-tahliliy metod – «Harakatlar strategiyasi» va «Taraqqiyot strategiyasi»ning qiyosiy tahlili qilish uchun, tizimli yondashuv yordamida – istiqbolli rivojlanish yo‘nalishlarini yaxlit tizim sifatida o‘rganish mumkin.Kontent-tahlilda rasmiy hujjatlar, Prezident nutqlari va normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilindi.Statistik ma’lumotlarni umumlashtirish – iqtisodiy va ijtimoiy ko‘rsatkichlarni tahlil qilish uchun foydalanilgan.

Natijalar va ularning tahlili

«Yangi O‘zbekiston» tushunchasi nafaqat davlatning rivojlanish konsepsiyasi, balki fuqarolar ongidagi ulkan mafkuraviy siljishning timsoliga aylandi. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda, bu – «Yangi O‘zbekiston – demokratiya, inson huquq va erkinliklari borasida umume’tirof etilgan norma va prinsiplarga qat’iy amal qilgan holda, jahon hamjamiyati bilan do‘stona hamkorlik tamoyillari asosida rivojlanadigan, pirovard maqsadi xalqimiz uchun erkin, obod va farovon hayot yaratib berishdan iborat bo‘lgan davlatdir» [2]. Yangi O‘zbekiston g‘oyasi jamiyatning barcha qatlamlarini qamrab olgan holda, yangi demokratik fazoni yaratishni maqsad qiladi.

Yangi O‘zbekistonda jamiyatning zamonaviy modeli bir nechta asosiy yo‘nalishlarni o‘zida mujassam etadi: inson kapitalini rivojlantirish, innovatsion va yashil iqtisodiyotning shakllanishi, fuqarolik jamiyatini mustahkamlash, gender tengligi, huquqiy ongni oshirish va ma’naviy yuksalish. Ushbu yo‘nalishlar nafaqat davlat siyosatining strategik maqsadlariga mos keladi, balki global sivilizatsiya talablari bilan ham uyg‘unlashadi.

Ushbu jamiyatning zamonaviy qiyofasini ifoda etadigan Inson kapitaliga asoslangan rivojlanish andozasi bu o‘zgarishlarning markaziga insonni uning bilim, malaka, sog‘liq va ijtimoiy qobiliyatlarini qo‘yishga asoslangan strategik yondashuv.

Yangi O‘zbekiston sharoitida ushbu model davlat siyosatlari, ta’lim va mehnat bozori islohotlari, sog‘liqni muhofaza qilish hamda xususiy sektor bilan hamkorlik orqali ijro etilmoqda. Yangi jamiyatning asosiy poydevori inson potensialiga bog‘liq ekani aniq. Ta’lim tizimini isloh qilish, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish jamiyatni barqaror va samarali rivojlantirishning kafolati sanaladi. Mamlakatimiz rahbari ta’kidlanganidek, «Ta’lim sifatini oshirish – Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to‘g‘ri yo‘lidir» [3]. Ta’lim sohasida qabul qilingan «2022–2026 yillarda ta’limni rivojlantirish strategiyasi» mamlakatimizning intellektual salohiyatini yanada oshirishga qaratilgan strategiya bo‘lib, raqamli savodxonlik, tadqiqot va innovatsiyalarga e’tibor kuchaytirilishi nazarda tutilgan. Bu siyosat yosh avlodni erkin fikrlovchi, mustaqil qaror qabul qiluvchi fuqarolar qilib tarbiyalashga xizmat qiladi.

Fuqarolik jamiyati institutlarining shakllanishi Yangi O‘zbekistondagi ijtimoiy transformatsiyaning eng muhim komponentlaridan biridir. «Fuqarolik jamiyati - jamiyat taraqqiyotining avvalgi bosqichlarida davlat xokimiyati organlari bajarib kelgan talay vazifalarning jamoat tashkilotlari zimmasiga o‘tishi, davlat faoliyati ustidan ijtimoiy nazorat

oʻrnatilishi» [4]. Yangi Oʻzbekistonda NNTlar soni ortib, ularning jamiyatdagi faolligi sezilarli darajada oshmoqda,ayniqsa, xotin-qizlar, yoshlar, nogironlar, kam ta’minlanganlar kabi ijtimoiy guruhlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan tashabbuslar, hukumat tomonidan qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar fuqarolik jamiyatini yanada mustahkamlamoqda. «Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak» [5] degan tamoyilni hayotga tatbiq etish jamiyatda shaffoflik, hisobdorlik va ochiqlikni kuchaytirdi.

Zamonaviy jamiyatda fuqarolik jamiyati institutlarining mavjudligi va samarali faoliyati siyosiy-huquqiy barqarorlikning kafolatidir. Yangi Oʻzbekistonda NNTlar, ommaviy axborot vositalari, mustaqil kuzatuvchilar, jamoatchilik kengashlari va mahalla tizimi orqali jamoatchilik nazorati kuchaymoqda.

«Jamoatchilik nazorati toʻgʻrisida»gi Qonun, «Ochiq byudjet» platformasi, «Mening fikrim» portali – bularning barchasi jamiyatning siyosiy faolligi va tashabbusini kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Ushbu qonunda «jamoatchilik nazorati fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari tomonidan tegishli hududda qonunlar va boshqa normativ hujjatlarning ijro etilishini oʻrganish, davlat organlariga murojaat qilish, ijtimoiy ahamiyatga molik masalalar boʻyicha soʻrovlar yuborish va boshqa shakllarda amalga oshirilishi mumkinligi» [6] Qonunning 16-moddasida koʻrsatilishicha, jamoatchilik nazorati ommaviy axborot vositalari, nodavlat notijorat tashkilotlar va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilishi mumkin. Shu bilan birga, davlat organlari fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlariga jamoatchilik nazoratini ta’minlashda yordam berishi va murojaatlarga oʻz vaqtida chora-tadbirlar koʻrishi lozim. Bu esa fuqarolik jamiyati institutlari, xususan, fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlarini jamoatchilik nazoratini amalga oshiruvchi sub’yekt sifatida davlat va fuqarolar oʻrtasida samarali aloqani yoʻlga qoʻyish, shuningdek, odamlarning kayfiyati va mamlakatdagi oʻzgarishlarga munosabatini aniqlash uchun muhim vosita sifatida xizmat qilishini ta’minlaydi. Bunday muvozanatda davlat va jamiyat bir-biriga ta’sir etuvchi ijtimoiy sherik sifatida faoliyat yuritmoqda. Natijada, hokimiyat hisobdorligi, fuqarolik mas’uliyati va ijtimoiy ishonch mustahkamlanmoqda.

Zamonaviy jamiyatda barqarorlik va tenglikni ta’minlash uchun gender muvozanati muhim ahamiyatga ega. Xotin-qizlar, yoshlar va kam ta’minlangan aholi qatlamlarini faol jamiyat a’zosiga aylantirish Yangi Oʻzbekiston siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biridir. Xotin-qizlarning siyosiy va iqtisodiy faolligi oshmoqda, ular parlament, mahalliy kengashlar, ishlab chiqarish va ta’lim sohalarida faol ishtirok etmoqda. «Xotin-qizlar daftari», «Yoshlar daftari», «Ijtimoiy himoya yagona reyestri» kabi mexanizmlar orqali himoyaga muhtoj aholiga amaliy yordam koʻrsatilmoqda. Bu jarayonlar jamiyatda inklyuziv muhitni yaratib, barcha fuqarolar uchun teng imkoniyatlar muhitini ta’minlamoqda.

Yangi Oʻzbekiston jamiyati nafaqat iqtisodiy rivojlanishni, balki ma’naviy tiklanishni ham oʻz oldiga maqsad qilib olgan. «Milliy-ma’naviy tiklanish – muayyan millat hayotida tarixiy taraqqiyotning ma’lum bosqichiga kelib mustaqillikni qoʻlga kiritish asosida ma’naviyat sohasida boy berilgan imkoniyatlardan qayta foydalanish, ma’naviy meros, urf-odatlar, an’analar, qadriyatlarning tiklanishi, milliy oʻzlikni anglash, oʻtmishda yaratilgan barcha moddiy va ma’naviy boyliklarni millat rivojlanishiga yoʻnaltirilgan umummilliy harakat, faoliyat va jarayonlarni nazariy va amaliy jihatdan asoslab beradigan konsepsiyani anglatuvchi tushuncha» [7]. «Inson qadri uchun» gʻoyasi doirasida milliy urf-odatlar, an’analar, til, tarix, madaniyat va milliy gʻurur qadriyat sifatida tiklanmoqda. Ma’naviyat va ma’rifat masalalari davlat siyosatining bir qismi sifatida qaralmoqda. Ta’lim, madaniyat, ommaviy axborot vositalari va diniy soha orqali fuqarolarda milliy oʻzlik, ma’suliyat va fidoyilik hislari shakllantirilmoqda. Bu jarayon globalizmga qarshi emas, balki milliy va umuminsoniy qadriyatlar muvozanatida shakllanmoqda. Shu bilan jamiyatda identifikatsiya mustahkamlanmoqda.

Yangi Oʻzbekiston sharoitida jamiyat taraqqiyoti iqtisodiy oʻsish yoki siyosiy islohotlar bilan emas, balki insonning intellektual va ma’naviy salohiyati, jamoatchilik faolligi, raqamlashtirish darajasi va fuqarolik institutlarining samaradorligi bilan ham chambarchas bogʻliq. Shu bois, istiqboldagi taraqqiyotni prognoz qilishda kompleks yondashuv talab etiladi. Jamiyat taraqqiyoti ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarda doimiy ravishda oʻzgarib va takomillashib borishidir. Ushbu jarayon bir necha omillar asosida amalga oshadi, jumladan, ilm-fan va texnologiyalarning rivojlanishi, ta’lim sifatining oshishi, aholining turmush darajasining yaxshilanishi va boshqa ijobiy oʻzgarishlar asosiy istiqbolli yoʻnalishlari tahlil qilinadi.

1. Inson kapitalining yanada rivojlanishi

Jamiyat rivoji - inson shakllanishi va rivoji bilan bogʻliq. Bu borada kelgusi yillarda inson kapitalini jadal rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishi boʻlib qoladi. «Ta’lim, ilm-fan, sogʻliqni saqlash va ijtimoiy himoya sohalaridagi tizimli oʻzgarishlar insonning kasbiy, intellektual va axloqiy salohiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi. Biz Oʻzbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qoʻygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma’rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz» [8]. Mamlakatimizning taraqqiy etgan davlatlar safidan oʻrin olishini ta’minlashga faqat ilm-ma’rifat, yuksak ma’naviyat va innovatsiyalarga tayangan holdagina erishish mumkin.

2. Iqtisodiy diversifikatsiya va innovatsion rivojlanish

Yaqin istiqbolda Oʻzbekistonda iqtisodiy diversifikatsiya va innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish orqali jamiyatni barqaror rivojlantirishga intiluvchi tendensiyalar davom etadi. Mahalliy ishlab chiqarish salohiyatini oshirish,

eksportni kengaytirish va chet el investisiyalarini jalb qilish jamiyatda ish bilan ta’minlash, farovonlik va ijtimoiy tenglikni ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. «Iqtisodiyotda tuzilmaviy islohotlar, savdo tizimi liberallashgani va investisiya muhiti tubdan yaxshilangani salmoqli natijalar bermoqda. Raqobatdoshlik oshdi, innovatsion taraqqiyot tezlashdi.» [9]

Shuningdek, raqamli iqtisodiyot va «yashil energetika» sohalari jamiyatda yangi kasblar va raqobatbardosh mutaxassislar shakllanishiga olib keladi. Elektron boshqaruv tizimlari va foydalanuvchiga yo‘naltirilgan davlat xizmatlari demokratik jamiyat qurilishiga zamin yaratadi.

3. Fuqarolik jamiyati va demokratiyaning chuqurlashuvi

Fuqarolik jamiyatini mustahkamlash Yangi O‘zbekiston jamiyatining uzoq muddatli rivojlanish platformasiga aylangan. 2030 yilgacha jamoatchilik nazorati mexanizmlarini kengaytirish, davlat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni samaralilashtirish rejalashtirilgan.

Mustaqil NNTlar, fuqarolarning raqamli faolligi, onlayn-petisiyalar va ishtirokiy byudjetlashtirish kabi shakllar fuqarolarning qaror qabul qilish jarayonlarida bevosita ishtirokini ta’minlaydi. Bu esa siyosiy faollik va ijtimoiy mas’uliyatni oshiradi, davlat boshqaruvini jamoatchilik manfaatlariga yaqinlashtiradi.

4. Globallashuv va milliy o‘zlik muvozanati

Global axborot muhiti, xalqaro migratsiya, madaniy ta’sirlar sharoitida milliy qadriyatlarni saqlash muammosi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Yangi O‘zbekiston jamiyatida global tendensiyalar bilan milliy o‘zlikni uyg‘unlashtirish muhim vazifalardan biridir.

5. Gender tengligi va ijtimoiy hamjihatlikni kuchaytirish

Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy barqarorlikning kelajakdagi muhim asosi – barcha fuqarolar uchun teng imkoniyatlar muhitini yaratishdir. Xotin-qizlar, yoshlar, nogironlar, kam ta’minlangan oilalar va boshqa ijtimoiy guruhlarning faol jamiyat a’zosi sifatida rivojlanishi jamiyatdagi barqarorlik va taraqqiyotning asosi bo‘ladi. «Gender tenglik jamiyat rivojida muhim bo‘lgan ijtimoiy munosabatlarda dolzarb ahamiyatga ega ekanligi bugungi kunda yanada yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Bugun oilada, jamiyatda, ayniqsa, xotin-qizlarning ijtimoiy hayotdagi faolligini oshirishga alohida e’tibor qaratilayotgani natijasida ijtimoiy munosabatlarda ham, qonunchilikda ham katta o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda» [10]. Hozirda dunyo hamjamiyatida gender tengligini ta’minlashning bir qator huquqiy asoslari qabul qilinmoqdaki va ushbu xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilgan mamlakatimiz xalqaro huquqning umume’tirof etilgan talablaridan kelib chiqib o‘z milliy qonunchiligida ayollar va erkaklar tengligi masalasini ifodasiga jiddiy e’tibor bermoqda

Jamiyatda ijtimoiy sheriklik, inklyuziv ta’lim va har bir coxaga yo‘naltirilgan islohotlar orqali umumiy farovonlikka erishish mumkin.

6. Ekologik madaniyat va barqaror muhit

Jamiyatning istiqboldagi rivojlanishida ekologik xatarlarni hisobga olish, barqaror muhitni shakllantirish, yashil energiya, ekologik ta’lim, qayta tiklanuvchi resurslardan foydalanish muhim o‘rin tutadi.

Prezidentimiz Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqida «O‘zbekiston – 2030» taraqqiyot strategiyasi BMTning «Barqaror rivojlanish maqsadlari»ga uyg‘un ekanini alohida ta’kidladi. O‘zbekiston hukumati 2019 yilda «Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM)»ni qabul qildi. Bu o‘rta va uzoq muddatda iqtisodiyotni yashillashtirish, ekologik tozalik va resurslarni samarali foydalanishga qaratilgan muhim qadam bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 26 martdagi PF-61-son Farmoniga muvofiq Hukumat qarori bilan Yoshlar ishlari agentligi huzurida «Yashil tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi» tashkil etildi.

«Yashil makon» umummilliy loyihasi dasturlarida ekologik barqarorlikka erishish va tabiat resurslaridan samarali foydalanish, atrof-muhit obyektlarini (havo, suv, yer, tuproq, yer qa’ri, bioxilma-xillik, qo‘riqlanadigan tabiiy hududlar) inson ta’siri hamda boshqa salbiy ta’sir qiluvchi omillardan saqlash va sifatini ta’minlash hamda sanoat ishlab chiqarishi, urbanizatsiya ko‘lami keskin kengayishi va aholi punktlariga tushayotgan ekologik yukni kamaytirish mexanizmlarini takomillashtirish rejalari ishlab chiqilgan va amalga oshirilmoqda. uchun turli loyihalar amalga oshirilmoqda.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida Prezidentimizning Farmoni bilan 2017 yil fevralida tasdiqlangan hamda 5 yil davomida yurtimiz hayotiga izchil tadbiq etilgan harakatlar strategiyasi ijrosi natijalari, xususan, asosiy natijalarga oid dalil va raqamlar ham keltirilgan. Raqamlardan shuni bilsak, bo‘ladiki Harakatlar strategiyasi ijrosini ta’minlash maqsadida 300 dan ortiq qonun, kodeks va yurtboshimizning 4 mingdan ziyod farmon va qarorlari qabul qilingan. Shu tarzda Harakatlar strategiyasi yakuniga kelib, Yangi O‘zbekiston huquqiy asoslari shakllantirildi. «Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi mamlakatimizning ulkan bunyodkorlik jarayoni bo‘lib, 2026 yilgacha bo‘lgan davrni qamrab oladi va yilma-yil amalga oshirib boriladi. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida belgilangan ustuvor yo‘nalishlar va muhim vazifalar milliy yoki mintaqaviy ko‘lamdagina emas, balki global miqyosda ulkan ahamiyatga molik xalqaro hujjatlar bilan uyg‘un va hamohangdir»[11].

Taraqqiyot strategiyasida alohida e'tibor fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga oid qonunlar, kodekslar, konsepsiya va dasturlarni qabul qilish hamda ularni amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan. Qonun ustuvorligini ta'minlash, konstitutsiyaviy islohotlarni izchil amalga oshirish, yashil iqtisodiyotning rivojlanishi, mustahkam ijtimoiy siyosatni yo'lga qo'yish, ma'naviyatni yuksaltirish, shuningdek, global muammolarga O'zbekistonning munosabati, xavfsizlik va tashqi siyosat bilan bog'liq muhim masalalar strategiyada qamrab olingan. Inson qadrini ta'minlash esa Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasidagi yetti ustuvor yo'nalishning markaziy g'oyasini tashkil qiladi. Bu qadrni qonuniy yo'llar orqali jamiyatning barcha sohalarida, milliy, mintaqaviy va xalqaro hamkorlik doirasida amalga oshirish ulug'vor vazifa hisoblanadi.

«Harakatlar strategiyasining barcha ustuvor yo'nalishi bo'yicha hozirgi kunga qadar 26 ta konsepsiya va bir qator dasturlar qabul qilinganligi, kelgusida Taraqqiyot strategiyasi doirasida 13 ta kodeks, 12 ta qonun, ya'ni har bir ustuvor yo'nalish uchun zarur qonun hujjatlari qabul qilinishi nazarda tutadi»[12].

Xususan, Tadbirkorlik kodeksining ishlab chiqilishi - yurtimizda tadbirkorlikni rivojlantirish va tadbirkorlar huquqlarini davlat tomonidan to'liq himoya qilishning mustahkam qonuniy asosiga aylanadi. Fuqarolik jamiyatining huquqiy mezonlari o'z aksini topadigan nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risidagi kodeks ham yaratiladi.

Axborot kodeksi amal qilayotgan ommaviy axborot vositalari, jurnalistlar faoliyati, axborot va so'z erkinligiga bag'ishlangan bir necha qonunlarni yagona va yaxlit qonun hujjati sifatida qabul qilinishining natijasi bo'ladi.

Xulosa

Hozirgi dunyoda, taraqqiyotning yangi yo'llarini, inson borlig'ining fundamental asoslarini izlab topish borasida jiddiy izlanishlar olib borilmoqda.

Shu bilan, hozirgi jamiyat va uning taraqqiyot istiqbollarini tahlil qilganimizda, quyidagi xulosaga kelish mumkin:

1. Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti jamiyatning barcha sohalarini qamrab oluvchi global muammolar keskinlashuvi bilan tavsiflanadi va u juda murakkab, ziddiyatli hamda tez o'zgarayotgan jarayonlardan iborat. Shu sababli, hozirgi jamiyatning kelajakdagi rivoj yo'llarini anglash, yangi dunyo tartibi va tizimini nazariy jihatdan o'rganish hamda bashorat qilish uchun yangi paradigmalarga asoslangan konseptual yondashuvlar ishlab chiqish zarurati yuzaga keladi.

2. Zamonaviy konsepsiyalarda hozirgi davr voqea-hodisalarini tahlil qilishda insoniyat rivoji va biosfera o'sishi, yangi ijtimoiy tizim va tartiblarning superindustriyal davrga o'tishi natijalari, dunyo bo'ylab masofalar, to'siqlar va farqlarning kamayishi, mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning kuchayishi, shuningdek, indigo-bolalar paydo bo'lishi va transformatsiyaning tezlashuvi kabi jarayonlar asosiy sabab sifatida ko'riladi. Shu bilan birga, ilgari foydalanilmagan suv hududlarini shahar-davlatlar qurish uchun o'zlashtirish, kosmik makonni egallash va aholini ko'chirish, sun'iy tana yordamida insoniyatni yerdagi yangi sharoitlarga moslashtirish, hamda insoniyatning kelajakdagi rivoji va baxtli hayoti haqidagi futurologik prognozlar ham tahlilning tarkibiy qismi sifatida ilgari suriladi.

Hozirgi zamon jamiyatini yanada rivojlantirish uchun uzoq muddatli prognozlarni tuzish kerak. Ushbu jarayonda insoniyat oldida bir necha murakkab vazifalar turibdi, va ularni samarali bajarish uchun mamlakatlar orasida hamkorlik qilish zarur. Jahon miqyosidagi muammolarga yechim topish, turli davlatlarning resurslarini va bilimlarini birlashtirish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. [1] Шавкат Мирзиёевнинг «Янги Ўзбекистон демократик ўзгаришлар, кенг имкониятлар ва амалий ишлар мамлакатига айланмоқда «. «Янги Ўзбекистон» газетаси бош муҳаррири Салим Дониёровнинг саволларига жавоблари Тошкент https://president.uz/uz/lists/view/4547 (2021).

2. [2]. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси // «Халқ сўзи» газетаси. 2022 йил 21 декабрь. – Б.1-3. [3]. Назаров Қ ва б. Маънавият асосий тушунчалар луғати. – Тошкент: «Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти» нашриёти, 2021.-Б.630.

3. [4]. https://www.gazeta.uz/oz/2016/10/22/islohotlar/

4. [5]. Ўзбекистон Республикасининг янги таҳрирдаги «Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари тўғрисида»ги қонуни // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2013. 17-сон, 219-модда. [6].Миллий-маънавий тикланиш. https://oyina.uz/kiril/teahause/2011.2023. [7]. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев 2020 йил 24 январда Олий Мажлиснинг Сенати ва Қонунчилик палатасига тақдим этган Мурожаатномаси.2020.

5. [8].Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг денгизга чиқиш йўлига эга бўлмаган ривожланаётган мамлакатлар бўйича учинчи конференциясидаги нутқи. https://www.gazeta.uz/uz/2025/08/05/nutq/ [9]. Кадирханова М. Оилавий-ҳуқуқий муносабатларда гендер тенглиги.// Конференция кириш сўзлари: Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами..-Toshkent :«Mahalla va oila nashriyoti»,2021.-Б.6-7. [10]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son.

https://lex.uz/docs/-5841063 [11]. Saidov A. Taraqqiyot strategiyasi zamirida qanday ma’no-mohiyat mujassam? // https://parliament.gov.uz/articles/146 01.12.2022